



UDK: 94/93.930+8.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI TARIXINING MARKAZIY OSIYODA O‘RGANILISHI

Begimqulova Laylo Mashrabovna
Farg‘ona davlat universiteti Tarix fakulteti
O‘zbekiston tarix kafedrası dotsenti
e-mail: beginqulova@internet.ru

Annotatsiya: Amir Temur va temuriylarning Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan hissasi, markazlashgan davlatning tashkil topishi, boshqaruvi va harbiy yurishlari tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida o‘rganilgan va tahlil etilgan. Shuningdek, Amir Temur shaxsiyati va mazkur davr tarixining Qozog‘istonda o‘rganilishi, ayni masalaga bo‘lgan e‘tibor haqida ba‘zi fikr-mulohazalar bildirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, Xalil Sulton, Sharafiddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshoh, Damashq, Samarqand, Qozog‘iston, Markaziy Osiyo, raiyat, ma‘naviy va ma‘rifiy, ma‘naviy-axloqiy.

Abstract: The this is studies and analyzes issue contribution of Amir Temur and the Timurids to the development of Central Asian civilization, the formation of a centralized state, its management and military campaigns on the basis of historical sources and scientific literature. Also, some comments are expresses about the personality of Amir Temur and the study of the history of this period in Kazakhstan, as well as the attention paid.

Key words: Amir Temur, Khalil Sultan, Sharafiddin Ali Yazdi, Ibn Arabshah, Damascus, Samarkand, Kazakhstan, Central Asia, raiyat, spiritual and educational, spiritual and moral.

Аннотация: На основе исторических источников и научной литературы изучается и анализируется вклад Амира Темура и Темуридов в развитие среднеазиатской цивилизации, формирование централизованного государства, его управление и военные походы. Были высказаны также замечания по поводу изучения личности Амира Темура и истории этого периода в Казахстане, а также уделяемого этому вопросу внимания.

Ключевые слова: Амир Темура, Халил Султан, Шарафиддин Али Язди, Ибн Арабшах, Дамашк, Самарканд, Казахстан, Средняя Азия, раият, духовно-просветительский, духовно-нравственный

KIRISH

Mustaqillik yillarida Sohibqironning yurtimiz va insoniyat tarixidagi katta xizmatlari munosib baholana boshlandi. Amir Temurning dunyodagi eng kuchli va katta saltanatlardan

birini barpo etganligi, harbiy san’ati, davlatni qanday asoslarga tayanib boshqarganini anglab yetish davrlar o’sha tadqiqotchilar hamda siyosatchilarning, davlat arboblarning diqqat e’tiborini tortib kelgan. Bugungi kunda Amir Temur saltanati yuksak davlatchilik ta’limoti yaratilgan bosqich sifatida o’ziga xos ahamiyat kasb etadi. Unda joriy etilgan boshqaruv asoslari o’z davrida nafaqat mamlakat fuqarolarining manfaatlari hamda farovonligi uchun xizmat qilgan, balki g’arb va sharq davlatlari o’rtasidagi munosabatlar, xalqaro hayotning iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy barqarorligi, rivojiga ham samarali ta’sir ko’rsatgani muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan ham Amir Temur barpo etgan davlatning ichki tuzilishi va qonun-qoidalari, boshqa davlatlardan muhim jihatlari bilan tubdan farq qilganligi manbalar asosida qiyosiy tahlil qilish va tegishli ilmiy xulosalar berish hamda tadqiqotlar olib borishga ehtiyoj ortmoqda. Jumladan, Amir Temurning dunyodagi eng kuchli va katta saltanatlardan birini barpo etganligi va mamlakat rivojiga qo’shgan ulkan xizmatlarini o’rganish dolzarb masalalardan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ushbu masala Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”si, Ibn Arabshohning “Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari” asarlarida Amir Temurning markazlashgan davlat barpo etish yo‘lida amalga oshirgan say’i harakatlari, ibratli ishlari va “o’ziga xos yaxshi qo’shnichilik” siyosati borasida diqqatga sazovor ma’lumotlar talaygina. Ayni yuqorida keltirilgan manbalar asosida uning harbiy yurishlar davomida qo‘llagan strategiyasi, xorij mamlakatlari bilan diplomatik munosabatlari atroflicha yoritib berilgan. Shuni alohida qayd etish lozimki, “Zafarnoma” asari tadqiq etilayotgan davr bo‘yicha haqqoniyligi va faktlarga boyligi bilan ajralib turadi. Muarrix Sohibqironning Markaziy Osiyoda hunarmandchilik, savdo-sotiq va madaniyat rivojiga mustahkam zamin yaratib berganligi, mohir harbiy tashkilotchi va atoqli sarkarda ekanligiga alohida urg‘u bergan. Amir Temur barpo etgan armiyaning ichki tuzilishi va qonun-qoidalari bilan boshqa armiyalardan muhim jihatlari bilan tubdan farq qilishi borasida atroflicha so‘z yuritgan.

Ibn Arabshohning “Ajoyib al-maqdur fi axbori at-Taymur” asarida Amir Temur irodasi mustahkam, qattiqqo‘l va adolatli davlat rahbar sifatida tasvirlangan. Davlatni islom dini qoidalari va turk-mo‘g‘ul qonunlari asosida boshqargan. Muarrix harbiy yurishlardagi muvaffaqiyatlarga qaramasdan, Sohibqiron o‘z lashkarini joylashtirishda va harbiy safarga chiqilgan vaqtda nihoyatda ehtiyotkorlik bilan harakat qilganligi haqida muhim ma’lumotlarni qayd etgan.

Amir Temur tarixiga tegishli manbalarda o‘xshash ma’lumotlar uchragani bilan, ular birbiridan davrida, sifatida, yozilish uslubi, dalil – ma’lumotlarning boyligi va boshqa jihatlari farqlar mavjudligi seziladi. Ularning barchasi ham o’ziga xosligi va qimmati bilan ajralib turadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Markaziy Osiyo tarixida XIV – XV asrlar muhim davr hisoblanadi. Mazkur davrda mintaqada Amir Temur va temuriylar sulolasi boshqaruvida bo‘lgan. Amir Temurning harbiy yurishlari, davlat boshqaruvi va madaniy siyosati nafaqat O‘rta Osiyo, balki butun Dashti Qipchoq hududiga katta ta’sir ko’rsatgan. Qozog‘iston tarixshunosligida ko‘proq bu davr alohida o‘rin tutadi **[1]**.

1. Qozog‘iston tarixshunosligida Amir Temur davri tadqiqotlarining shakllanishi bilan Amir Temur davri tarixi o‘rganilish ishlari boshlanadi. Shu ishlarning asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat:

1920-1940-yillar - dastlabki tadqiqotlar davri. Bu davrda asosan arxeologik materiallar va yozma manbalar to‘planishi boshlangan.

1950-1970-yillar - tizimli tadqiqotlar davri. K.A. Pishulina, B.A. Ahmedov kabi olimlar tomonidan temuriylar davri chuqur o‘rganila boshlangan.

1980-2000-yillar - yangi konseptual yondashuvlar davri. T.I. Sultanov, M.X. Abuseitova singari olimlarning fundamental tadqiqotlari yaratilgan.

2000-yildan keyingi davr - zamonaviy tadqiqotlar. Bu davrda K.M. Baypakov, J.M. Tulibayeva kabi olimlar tomonidan yangi manbalar asosida tadqiqotlar olib borilmoqda [2]. Aksariyat qozog‘istonlik tarixchilar o‘z tadqiqotlarini Sharafiddin Ali Yazdiy qalamiga mansub “Zafarnoma” asari o‘rganish va ikkilamchi manbalarni tahlil qilish asosida yaratishgan. Bu asar qahramonlik, yuksak optimistik ruhda yozilgan. Sharafiddin Ali Yazdiyning bu asarida Amir Temur tavallud topgan davrdan to Xalil Sulton davrigacha yuz bergan tarixiy voqealar yoritilgan. Sharafiddin Ali Yazdiyning qayd etishicha, Amir Temur “Obodonlikka yaraydigan biror qarich yerning ham zoye bo‘lishini ravo ko‘rmasdi”. Tarix bu ko‘hna dunyoda juda ko‘p jahongirlarni ko‘rgan. Amir Temurning ulardan farqi shundaki, u umr bo‘yi bunyodkorlik bilan mashg‘ul bo‘lgan. Uning “qay bir joydan bir g‘isht olsam, o‘rniga o‘n g‘isht qo‘ydirdim, bir daraxt kestirsam, o‘rniga o‘nta ko‘chat ektirdim”, -degan so‘zlari bunyodkorlik, yaratuvchanlik faoliyatining tasdig‘idir. “Agar bizning qudratimizni bilmoqchi bo‘lsangiz, qurgan binolarimizga boqing”- deganda Amir Temur, avvalo, o‘z xalqiga, kelajak avlodlariga murojaat qilgan, desak yanglishmaymiz.

Sohibqiron mamlakat mustaqilligini mustahkamlashda ilm-fan va madaniyatni rivojlantirish orqali amalga oshirish mumkinligini yaxshi anglagan hamda ayni masalani davlat siyosati darajasiga olib chiqqan. Shu boisdan ham hokimiyatga kelishi bilan chiqargan dastlabki farmonlarini madrasalar barpo etishga va ilm toliblariga nafaqalar tayinlash bilan boshlagan. Qaysi bir shaharga tashrif buyurmasin Amir Temur avvalo o‘sha yerlik olimu fozillar bilan uchrashar va ular bilan suhbat qurar hamda turli mavzularda bahslashar edi.

Amir Temur ma’naviyatini belgilovchi bosh mezon uning butun umr bo‘yi amal qilgan “Kuch - adolatda!” degan shioridir. Bu shiorda Amir Temur hayoti va faoliyatining butun mazmuni mujassamlashtirgan. Amir Temurning ma’naviy va ma’rifiy qarashlari uning o‘z farzandlari, nabiralari, taxt vorislariga qoldirgan o‘gitlari “Temur tuzuklari”da o‘z aksini topgan edi. Bu bebaho tarixiy asarda, hokimlar va vazirlarning vazifalari, o‘z ishiga munosabati, aholi turli qatlami - raiyatning haq-huquqini himoya qilish, sipohlarga munosabat kabi hayotiy ma’naviy-axloqiy qonun-qoidalar o‘z ifodasini topgan. Shuning uchun Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”si manbalar orasidagi eng ishonarli va aslliligi bilan ajralib turadi [3].

Ibn Arabshoh-Shihobiddin Ahmad ibn Muhammad ibn Ibrohim (1389 - 1450)ning “Ajoyib al-maqdur fi axbori at-Taymur” (“Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari”) asari Amir Temur davriga oid muhim manbalardan biri hisoblanadi. 1401-yilda Amir Temur Damashqni zabt etgan vaqtda Ibn Arabshoh 12 yoshda edi. U 1401-yilda asir sifatida Samarqandga

keltirilgan, bu yerda 1408-yilgacha yashagan va o‘z vataniga qaytgach, 1419-yilda Amir Temur davri tarixini yozib qoldirgan. Bu asar Amir Temurga nisbatan salbiy va dushmanlik munosabatida, manba va dalillarga kam asoslanib, o‘zining ichki subektiv tassurot va munosabatlari asnosida yozilgan bo‘lsa ham undagi ba’zi ma’lumotlar saltanat tarixini o‘rganishda alohida ahamiyat kasb etadi [4]. Tarixchi Amir Temurni mamlakat boshqaruvidagi faoliyati haqida: “Temur o‘z g‘oyibligida mamlakati va raiyasi ishlarida nelar yuz berganini surishtirib, yeru mulklari masalalarini diqqat bilan o‘rgana boshladi va hokimlariga yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatdi; atrof va chegaralar, tevarak-chetlar foydasi tadbirini ko‘rib, kattayu kichikning g‘amini yeb, boyu faqirning manfaati bilan mashg‘ul bo‘ldi [5]. O‘z mulohazasi taqozasiga ko‘ra barcha ashyolarni o‘z o‘rniga qo‘yib, jami mansabu martabalar jilovini o‘shanga sazovor kishilar qo‘liga tutqaza boshladi. U sayidlarni e‘zozlab, karomatlar sohiblari (bo‘lgan) avliyolarni izzatu ikromli qildi, ilmu fanni va uning ahllari hurmatini oshirib, ularga muruvvatini sohib, martabalarini ulug‘ladi...», – kabi fikr-mulohazalarni ham keltirib o‘tgan edi [6].

XULOSA

Mustaqillik yillarida Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatiga bag‘ishlangan tarixiy manbalarni chop etishga katta e‘tibor qaratildi. Tarixiy manbalarni fors va arab tillaridan o‘zbek hamda rus tillariga tarjima qilib, ilmiy jihatdan o‘rganildi. Amir Temur va temuriylar davri, umuman Sharq, xususan Markaziy Osiyo ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hamda ilm-fani, madaniyati, ma’naviyati, adabiyot va san’ati rivojida muhim bosqich, yangi tarixiy davr, tub burilishdir. Bu davrni hozirgi davr ilm-fanida Markaziy Osiyoda ikkinchi Renessans (Uyg‘onish) davri deb ham yuritadilar. Yuqorida bildirilgan mulohazalar Markaziy Osiyoda Amir Temur tarixining o‘rganilishi masalasi bo‘yicha yangicha ilmiy xulosa va takliflarni bildirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур: Темур тарихида тақдир ажойиботлари. / Сўз боши, араб тилидан таржима ва изоҳларни У.Уватов тайёрлаган. К. I. –Т.: Меҳнат, 1991. – 328 б.
2. Темур тузуклари. / Таҳрир ҳайъати: Б.Абдуҳалимов ва бошқ. Форсча матндан А.Соғуний ва Ҳ.Кароматов тарж. – Т.: «O‘zbekiston», 2012. – 184 б.
3. Амир Темур Кўрагон. Темур тузуклари. / сўз боши, тадбил, изоҳ муаллифлари Ҳ.Н.Бобобеков, А.Қурбонбеков, И.Сулаймонов. – Т.: «Fan va texnologiya», 2014. – 196 б.
4. Шарафиддин Али Йаздий. Зафарнома. /Сўз боши, тадбил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари А.Ахмад ва Ҳ.Бобобеков, -Т.: Шарқ, 1997. – 384 б.
5. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. Мовароуннаҳр воқеалари (1360-1370) / Маъсул муҳаррир, сўз боши муаллифи ва нашрга тайёрловчи А.Ўринбоев, таржимон О.Бўриев – Т.: Камалак, 1994. – 288 б.

6. Казахстан и Центральная Азия в XV-XVII веках: история, политика, дипломатия. – Алматы, 2007. – 469 с.

7. Средневековые города Казахстана на Великом Шелковом пути. - Алматы, 2006. – 616 с.